

ZOMIN SHIFOBAXSH O'SIMLIKLARI

Dilrabo Qurbonova Numonjonovna

Jizzax viloyati Zomin Abu Ali ibn Sino jamoat salomatligi texnikumi.

Biokimyoviy tekshitish usullari fani o'qituvchisi

Zomin tumani turli dorivor moddalarning manbai hisoblangan, shifobaxsh o'simliklarga nihoyatda boy tumandir. Sintetik kimyo jadal rivojlanayotgan davrda aksariyat dori-darmonlar kimyoviy yo'l bilan tayyorlansada, 40-45% dorivor preparatlar dorivor o'simliklardan tayyorlanadi. Xalq tabobatida turli kasalliklarga qarshi tabiiy giyohlardan foydalanish qadimdan ma'lum. Dorivor giyohlarning ko'pchiligi yovvoyi holda o'tloqlarda, tog' yonbag'irlarida qir-adirlarda ariq daryo bo'ylarida, ekinzorlarda o'sadi. Sintetik yo'l bilan olingan har bir kimyoviy dorivor preparatlarni uzoq vaqt davomida qabul qilish inson organizmida o'zgarishlar, ayniqsa allergik kasalliklarning avj olishiga sabab bo'lmoqda. Shifobaxsh giyohlar esa bemorlarga ko'proq samarali va bezararli bilan bugungi kunda ehtiyoj ortib bormoqda. Kitobda xalq tabobati va ilmiy tabobatda qo'llanilishi, turli kasalliklarni davolashda ishlatiladigan giyohlardan yig'malar tayyorlash usullari bilan tanishtiriladi. Zomin tumanidagi shifobaxsh giyohlardan foydalanishda ekologik muvozanatga ta'sir etmagan holda ularni vaqtiga qarab yig'ishtirib olib va damlama tayyorlash qoidalariga rioya qilish lozim. Bizning maqsadimiz Zomin tumanida xilma xil o'simliklar dunyosining o'ziga xos noyob xususiyatlarini tanishtirish va shu tariqa dorivor o'simliklarni asrab avaylashga da'vat etishdir. Mustaqil vatanimizning har go'shasi o'ziga yarasha qadr-qimmat va fayz barakaga egaligi hech kimga sir emas. Har bir inson o'z yurt qadr-qimmatiga yetib, suyub, faxrlanib yashashi ko'ngillarga taskin beradi. Zero, Vatanning har misqol tuprog'i, ko'zlarga to'tiyo, har bir giyohi aziz va mo'tabar. Xususan jannat makon Zomin diyori haqida faxrlanib so'zlasak mubolag'a bo'lmaydi. Zominning ulug'vor tog'lari, jonga orom beruvchi soyalari, betakror va maftunkor archazorlari hayvonot dunyosi, shifobaxsh o'simlik olami kimlarni lol qoldirmagan deysiz!

Xalq o'rtasida shifobaxsh giyohlar organizm uchun mutlaqo zararsiz va zaharsiz va kasallik keltirib chiqarmaydi degan fikrlar mavjud. Ammo bu fikrlar giyohlarni mutaxassislar yordamida to'g'ri va oqilona foydalanilsa, bir o'simlikni ikkinchi o'simlik turi bilan almashtirib yuborilmasa, o'simliklarni bir-briga hamda inson organizmiga to'g'ri kelishini hisobga olisa, o'simliklar rivojlanishining aniq, davrlariga, miqdor hamda aniq yig'malarga, iste'mol etish usullariga rioya qilingandagina to'g'ri bo'ladi va foydalanilsa samara beradi. Fitoterapiya bilan shug'ullangan mutaxassis shifokorlar, dorishunos hamda giyohlarning xususiyatini yaxshi biladigan botanik-biolog ma'lumotli dorishunos mutaxassis bilan hamkorlikda davolash ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

Avstriyalik olim, professor Xitxok Zomin tabiatini Shvetsariyaga o'xshatganligi bejiz emas. Mana shu satrlarning o'zi ko'nglimizga olam - olam faxr tuyg'usini bag'ishlaydi. Ulug'

alloma, Sharq tibbiyoti otasi – Abu Ali ibn Sino qalamiga mansub kitoblarda tilga olingan shifobaxsh o`simliklarning ko`p turlari Zominda uchraydi. Bu o`z navbatida bizni shifobaxsh o`simlik dunyosi bilan yaqindan tanishib malaka oshirishga undaydi. Bu borada jamoamiz ancha izlanishlar olib bormoqda. 5 Dorivor o'simliklar nima sababdan insonni davolashga sabab bo'ladi? Juda ko'p o'simlik turlari shofobaxsh, dori-darmonlik xususiyatiga egadir. Ularning dorivorlik quvvat beruvchi kuchlari nima bilan bog'liq? O'simliklar biologik aktiv moddalarni sintez qiladi. O'simlik xom-ashyolaridan dori-darmon tayyorlashda farmokologik ahamiyatga ega bo'lgan oqsillar, yog'lar, karbon suvlar, alkaloidlar, efir moylari, saponinlar, flavanoidlar va boshqa biologik aktiv moddalar muhim rol o'ynaydi.

Alkaloidlar-o'simliklarning turli organlarida to'planadigan azot saqlovchi va ishqor xususiyatiga ega organik birkmalardan tashkil topgan modda, Alkanlardan morfin, papaverin, xinin, kofein kabi turli xil dori-darmonlar ishlab chiqarishda xom ashyo vazifasini o'taydi.

Flavanoidlar-o'simlik organlarida asosan sariq bo'yoq (pigment) holda uchraydi. Ular spazmolitik va balg'am ko'chiruvchi ta'sirga ega yallig'lanish hamda 12 barmoqli ichak jarohatlarini davolashda yuqori samarilidir.

Glikozidiar -o'simlik organida eng ko'p to'planib qandli glikozid va qandsiz aglikon komponentlariga bo`linadi. Glikozidiar yurak qon tomir sistemasiga ta'sir etuvdii boshqa moddalardan farqli o'laroq o'z ta'sirini to'g'ridan -to'g'ri yurakka o'tikazadi. Adichiq glikozidlar esa oshqozon ichak yo'llarining ish qobiliyatini oshiradi, ishtahani ochib ovqat hazm bo'lishini yaxshilaydi.

Saponinlar-o'simlikning bargida organlarida bo'lib, uning miqdori hamda sifati o'simliklarning rivojlanish davriga qarab o'zgarib turadi. O'simlikning ildiz organida juda yuqori bo'ladi. Saponinlardan tayyorlangan dori-darmonlar tabobatda balg'am ko'chish, siydik haydashda va yallig'lanishda ishlatiladi.

Efir moylari-o'simlikning hamma organlarida hosil bo'ladi. Komponentlari uglevodorod, spirt, aldegit, keton, fenol, lakton, efir ximin kislota, azotli birikmalar va boshqa moddalar kiradi. Efir moylari asosida tayyorlangan dori-darmonlar balg'am tashlovchi, antiseptik bakterioseptik xususiyatiga ega, ayrim turlari organizmni sovutadi, tinchlantiradi.

Vitaminlar – O`simlikning barcha organlarida saqlanadi. Vitaminlar inson to'qimalari uchun doimiy va zarur komponentlardan hisoblanib modda almashhuvida faol ishtirok etadi. Organizmning turli kasalliklardan himoyalaniq qobiliyati oshiradi. Vitaminlar lotin harflari va sonlari bilan belgilanadi.

Aitotsionlar-o'simliklarning guli, mevasi hamda urug'larida ko'proq bo'ladi. Meditsinada kvartsetin va rutin moddalardan tayyorlanadigan dori-darmonlar ko'proq qo'llanilad. Ular yurak qon tomir, qon ketishi, oshqozon yarasi qon bosimi oshishi kabi kasalliklarga qarshi ishlatiladi.

Tannid-ayrim o'simliklarning bargi, mevasi, po'stlog'i, ildizi va tunganaklarida to'planadi. Tannid teri oshlash sanoati uchun muhim hom ashyodir. Tibbiyotda oshqozon ichak kasalliklarini oldini oluvchi, bakterioseptik modda tariqasida ishlatiladi.

Organik kistotalar-o'simlikning hujayra shirasida uchraydi. O'simlikning barcha organlarida, mevalarda (olma, limon), vino, shovul, chumoli, askarbin kislotalar hoida bo'ladi. Organizmda organik kisbtalar modda almashinuvida ishtirok etadi. O't suyuqligi va pankreatik shiraning ajralishiga ta'sir ko'rsatadi.

Fermentlar-o'simlik to'qimalarida paydo bo'ladi, Ular mevalarda ko'proq to'planadi hamda moddalar almashinuvida faol ishtirok etadi.

Fitonsitlar -o'simlik organida to'planib, mikroorganizmlarni qirib yuborish xususiyatiga ega bo'lgan organik moddalardan hisoblanadi. Bu moddalarni o'simlik antitibiotigi yoki fitonsitlari deyiladi va yuqumli kasalliklarni davolashda qo'llaniladi.

Dorivor o'simliklarning ishlatiladigan qismlari hamda yig'ish vaqtlari

Kurtak-bo'rtish paytida, erta bahorda teriladi.

Po'stloq -o'simlikning ko'p yillik sog'lom, kasallanmagan shox shabbalaridan ajratib olinadi. Shira oqishi boshlanish paytida ajratib olinadi.

Barg -o'simlik qiyg'os gullagan paytda teriladi. Barg sog'bm, kasallanmagan, hashorot emagan bo'lishi kerak.

Gullar -g'unchalash davrining oxiri, ochilish paytining boshlarida savatga teriladi.

Meva va urug'lar pishib etilishiga qarab bir necha bor teriladi. Sershirali mevalar-faqat yaxshi pishgan havo ochiq bo'lgan paytda ertalabki yoki kechki soatlarda teriladi.

Ildiz, ildizpoya va tunganaklar -o'simlik urug'i va mevalari to'liq pishib etilgandan keyin, o'sish davrining oxrida, ya'ni qishki uyquga ketish paytida tayyorlanadi. Ba'zan erta bahorda o'simlik vegetatsiyasi boshlanishida qazib olinadi. Shifobaxsh giyohlarni belgilangan muddatda terib olmaslik ularni tarkibida biologik aktiv moddalarning sifatini o'zgarishiga salbiy ta'sir etadi.

Shifobaxsh giyohlardan dori-darmonlarni tayyorlash usullari:

Shifobaxsh o'simliklarni kurtagi, guli, bargi, mevasi, urug'i, poyasi, po'stlog'i ildizi, ildizpoyasi, tunganaklaridan dori-darmonlar o'rnida foydalanish bilan birga, ulardan damlama va qaynatmalar ham tayyorlanadi. Shuningdek, o'simlik sharbatlari ham olinadi. Shifobaxsh giyohlar xom ashyosidan 1:10, 10:100, 20: 200 nisbatda olib, emallangan yoki zanglamaydigan po'lat idishlarga solib, ustiga qaynatib sovitilgan suv, distirllangan toza suv qo'yib og'zini berkitib vaqti-vaqti bilan aralashtiriladi. Natijada damlama hosil bo'ladi. Shu usul bilan 30 daqiqa qaynatilsa qaynatma hosil bo'ladi, sovugach dokadan o'tkaziladi, agar kamroq bo'lsa shuncha miqdorda toza suv qo'shiladi. Damlama hamda qaynatmalar dori tayyorlash farmakopiyasining talablariga to'liq javob beradigan holda tayyorlash zarur.

BO`ZNOCH , QUMLOQ BO`ZNOCHI. (Helichrysum arenarium) Бессмертник песчаный)

O`simlik tasviri. Atsraguldoshlar – (murakkabguldoshlar)-Aseraceaye(Compositaye) oilasiga mansub, bo`yi 30sm gacha o`sadigan ko`p yillik o`t o`simlik . Poyasi tik o`sadi, bir nechta , shoxlangan bo`ladi. Ildiz oldi barglari qisqa bandli, poyadagilari bandsiz ketma-ket joylashgan. Barglari cho`ziq teskari tuxumsimon (poyasining yuqori qismidagilari nishtarsimon – chiziqsimon), tekis qirrali. Sariq gullari sharsimon savatchaga to`planib, qalqonsimon ro`vak gul to`plamini hosil qiladi. Mevasi-pista. O`simlikning poyasi va barglari sertuk, shuning uchun kulrang ko`rinadi.

Qo`llaniladigan qismi. Guli kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Guli tarkibida flavonoidlar, kumarinlar, efir moyi, inozit, vitamin K, buyoq, oshlovchi va boshqa moddalar bor. Flavonoidlar summasi

naringenin, apigenin, kempferol va ularning glikozidlari, salipurpozid va boshqalardan tarkib topgan.

Gulining dorivor preparatlari (qaynatma,tabletkada holidagi quruq konsentrati-flamin quruq ekstrakti va o`t xaydovchi yig`ma –choy tarkibida) jigar (sariq) kasalligi, xronik xoletsitsit va boshqalarda o`t-tosh, o`t yo`llari kasalliklarida o`t xaydovchi vosita sifatida qo`llaniladi.

Gulining flavonoidlar summasi –arinarindan tayyorlangan surtmasi ko`z kasalliklari (ko`z shikatslanishi,ko`z shox pardasining yarasi, kuyish va boshqa kasalliklar) ni davolashda ishlatiladi.

Bo`znoch gulining damlamasi yoki qaynatmasi xalq tabobatida jigar kasalliklarida, buyrakka, siydik xaydovchi vosita sifatida qo`llaniladi. Ba`zan ushbu damlama yumshoq surgi sifatida ham ishlatiladi.

DORIVOR QASHQARBYEDA (SARIQ QASHQARBYEDA)

O`simlik tasviri. Dukkakdoshlar – Fabaceaye oilasiga mansub, bo`yi 50-100 (200) sm keladigan ikki yillik o`t o`simlik . Poyasi bitta yoki bir nechta bo`lib, tikka o`sadi . Barglari uch plastinkali murakkab, poyasi bilan shoxlarida uzun bandi yordamida ketma-ket joylashgan , nishtarsimon, bigizsimon o`tkir uchli yondosh bargchalari bo`ladi. Barg bo`lakchalari cho`ziq, dumaloq - nishtarsimon yoki teskari tuxumsimon, mayda arrasimon tishsimon qirrali. Mayda, sariq gullari barg qo`ltig`idan chiqqan ko`p gulli shingilga to`plangan. Mevasi bir-ikki urug`li, o`tkir uchli dukkak. Iyun – sentyabrda gullaydi, mevasi avgust oyidan boshlab yetila boshlaydi.

Geografik tarqalishi. Zomin soyi, adirlarida o`sadi. Tekislik va tog`larning o`rta poyasigacha bo`lgan o`tloqlar, daryo, ariq va ko`l buylarida, yo`l yoqalarida, soylarda, bog` hamda ekinzorlarda o`sadi.

Qo`llaniladigan kismi. Yer ustki qismi.

Kimyoviy tarkibi va ishlatilishi. Tarkibida 0,4-0,9% kumarin, dikumarin, melilotozid glikozidi, efir moyi vitamin S va E , karotin xolin , shillik va boshqa moddalar ,urug`ida – 8,5% yog va 0,13-0,45% alkaloid bor. Yer ustki qismining yumshatuvchi va ta`sirlovchi xossasi bor. Shuning uchun undan tayyorlangan malham yiringli yara va chipqonni davolashda qo`llaniladi. Dikumarol qonni ivitmaydigan ta`sirga ega va shu maqsadda tromboflebit kasalligida ishlatiladi. Dorivor qashqarbeda bilan bir qatorda uning boshqa turlari – baland bo`yli qashqarbeda – Donnik roslo`y – Xushbuy qashqarbedaning yer ustki qismlari tibbiyotda ishlatishga ruxsat etilgan. Qashqarbeda damlamasi xalq tabobatida o`pka va yuqori nafas yo`llari kasalliklarida, ko`krak og`riganda balg`am ko`chiruvchi, yumshatuvchi va og`riq qoldiruvchi vosita sifatida, bosh og`rig`i va gipertoniya kasalliklarini davolash uchun qo`llaniladi. Ba`zan uni yel xaydovchi dori sifatida ham tavsiya qilishadi. Quritilmagan dorivor qashqarbeda yoki undan tayyorlangan malxam yiringli yaralarga bog`lanadi . Bunda yaralar yiringdan tozalanadi. Yaralarni qashqarbeda damlamasi bilan yuvilsa, yaxshigina naf beradi. Biroq dorivor qashqarbeda preparatlari ko`p miqdorda va uzoq muddat qabul qilinsa, bosh aylanishi, qayt qilish va uyqusizlik kuzatilishi mumkin.

Dori tayyorlash va foydalanish.

Damlama tayyorlash uchun og`zi yopiladigan idishga 2 stakan qaynatib sovitilgan suv quyiladi, ustiga maydalangan yer ustki qismidan 2 choy qoshiqda solib, damlab qo`yiladi, Keyin dokada suziladi va damlamadan kuniga 2-3 maxal chorak stakandan ichiladi. Og`zi yopiladigan idishga 1 stakan qaynab turgan suv quyiladi, ustiga 2 choy qoshiqda o`simlikning maydalangan yer ustki qismidan solib, bir soat damlab quyiladi. So`ngra dokada suzib , har kuni 15 bir osh qoshiqdan 2-3 maxal ichiladi. Og`zi yopiladigan idishga 1 l qaynab turgan suv quyiladi, ustiga o`simlikning maydalangan yer ustki qismidan 100 g solib bir soat davomida damlab qo`yiladi. So`ngra dokada suzib, tayyor bo`lgan damlamani yaralarni yuvish va vanna qilishga ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. Nabiyev M. Muxtarov M. M. Turkona davo va soda muolajalar. Ibn Sino Toshkent. 2003.
2. S. Kushkarov. A. Kushkarov. "So`fi tabobati" Toshkent. 2004.
3. Hamidjon Zohidov "Shifo xazinasi" I.II.III tom Toshken, Yangi asr avlodi, 2004.
4. Abu Ali ibn Sino "Tib qonunlari" 2-kitob. Toshkent 1992 yil.
5. Madraxhimov A.S. Ibn Sino shifobaxsh o`simliklar haqida "Mehnat", Toshkent 1990 y.
6. Mamanov S.I Pokrovskiy A.A. "Pryanoaromaticheskiye rasteniya". Agropromizdat, Moskva. 1991 g

7. Nabiyeu M., Sabzavot, rezavor mevalar, ziravorlar xosiyati. Mehnat, Toshkent 1990.
8. Po`latova T.P. Shifobaxsh o`simliklarni asrang va ko`paytiring. Meditsina,4 Tashkent 1990.
9. Hasaniy M. Tabobat durdonalari , Ibn Sino nashriyoti. Toshkent, 1990 10. Ziyonet.uz. O`qituvchi uz. saytlaridan foydalanildi.